

Fanlar akademiyasi faoliyati to'g'risidagi axborotlar ro'yxati

Fanlar akademiyasi faoliyati to'g'risidagi axborotlar ro'yxati

Quyidagi axborotlar Fanlar akademiyasi faoliyati to'g'risidagi axborotlar hisoblanadi:

1. Fanlar akademiyasi huquqiy maqomini belgilovchi normativ-huquqiy hujjatlar;
2. Fanlar akademiyasi tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, ularning ijro etilishi to'g'risidagi ma'lumotlar;
3. Fanlar akademiyasi tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy va boshqa hujjatlarga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ushbu hujjatlarni o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risidagi ma'lumotlar;
4. Fanlar akademiyasi tomonidan ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy va boshqa hujjatlarning loyihalari to'g'risidagi ma'lumotlar;
5. Fanlar akademiyasi tomonidan davlat dasturlari hamda boshqa dasturlar amalga oshirilishi to'g'risidagi ma'lumotlar;
6. Fanlar akademiyasi tomonidan o'tkaziladigan ommaviy tadbirlar (majlislar, kengashlar, uchrashuvlar, matbuot konferensiyalari, brifinglar, seminarlar, davra suhbatlari va boshqalar) to'g'risidagi ma'lumotlar;
7. Fanlar akademiyasining davlat hokimiyati va boshqaruvining boshqa organlari, jismoniy va yuridik shaxslar, shuningdek, xorijiy va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi to'g'risidagi ma'lumotlar;
8. Amalga oshirilishida Fanlar akademiyasi ishtirok etayotgan O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risidagi ma'lumotlar;
9. Fanlar akademiyasi faoliyati sohasiga taalluqli bo'lgan tarmoqning (hududning) holatini va uning rivojlanish sur'atini tavsiflovchi rasmiy e'lon qilingan asosiy ko'rsatkichlar haqidagi, shu jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlar;
10. Fanlar akademiyasi tomonidan o'tkaziladigan (tashkil etiladigan) ochiq tanlovlar (tenderlar) va kimoshdi savdolari to'g'risidagi ma'lumotlar (Ochiq ma'lumotlar);
11. Bo'sh ish o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlar;

12. Fanlar akademiyasi tararrufidagi ilmiy jurnallar to'g'risidagi ma'lumotlar.
Fanlar akademiyasi faoliyati to'g'risidagi axborot jumlasiga qonun hujjatlariga
muvofiq boshqa ma'lumotlar ham kiritilishi mumkin.